

**INNOVATSION RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA INSON  
KAPITALINING MOHIYATI VA AHAMIYATI**

*Dauletmuratov Adilbay Mirzabaevich*

*QQDU "Menejment va iqtisodiyot asoslari" kafedراس dotsenti,*

*E-mail: [dadi1509@mail.ru](mailto:dadi1509@mail.ru)*

*Yelesinova Janat Turar qizi*

*QQDU Menejment ta'lim yo'nalish 2-kurs talabasi*

Innovatsion jarayon har qanday iqtisodiy faoliyatning ijobiy natija berishida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki innovatsion jarayonda insonning bilimi, mahorati, ko'nikmalari, ijodiy qobiliyatlari, kreativligi, tajribasi va murakkab muammolarning zamonaviy yechimlarini topa olish qobiliyati alohida o'rin egallaydi. Bundan tashqari, ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy muammolarni hal etishda chuqur bilim va malaka, zamonaviy axborot tizimi hamda ilmiy xodimlarning ijodiy hamkorligi talab etiladi. Chunki inson salohiyati har qanday korxonaning asosiy kapitali hisoblanadi.

Jahon amaliyotini o'rganish jarayoni shuni ko'rsatadiki, inson kapitali masalalari ilmiy, amaliy va o'quv adabiyotlarida keng muhokama qilinadi. Inson kapitali - bu murakkab, xilma-xil va o'zgaruvchan hodisa. Inson kapitali tadqiqotchilari uning mohiyati va mazmunini aniqlashda uning yondashuvlaridagi farqni belgilaydigan turli jihatlariga e'tibor berishadi.

Inson kapitali tushunchasi ham iqtisodiy ham gumanitar kategoriya sifatida XX asrning 60-yillaridan e'tiboran muomalaga kiritilgan va bu tushuncha daslab iqtisodiy munosabatlar hamda ishlab chiqarish jarayonlarning markazida turuvchi inson omilini ifodalay boshlagan. O'sha davrlarda boshlangan zamonaviy ilmiy-texnika inqilobi, axborot texnologiyalarning keng yoyilishi, jahondagi iqtisodiy vaziyat va modellarning o'zgarishi kabi holatlar inson kapitali tushunchasining ma'nolarini o'zgartirdi va kengaytirdi.

Iqtisodiy hayotda va butun jahonda inson omili va inson kapitali kategoriyasining keng tarqalishi yetakchi rivojlangan davlatlarda usbu sohadagi izlanishlarning kuchayishiga olib keldi. Mana shunday sharoitda ikkita amerikalik iqtisodchi olim - Teodor Shults ("Investment in Human Capital" 1979-y.) va Geri Bekker inson kapitali nazariyasining asoslarini ishlab chiqdilar va bu tadqiqotlari uchun ular xalqaro Nobel mukofotiga sazovor bo'ldilar.

T.Shults va G.Bekkerlar tomonidan inson kapitali tushunchasiga berilgan ta'riflarini qisqacha quyidagicha keltirishimiz mumkin: "*inson kapitali - bu inson va jamiyatning tobora ortib borayotgan ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan intellekt, qobiliyat, salomatlik, mahorat, salohiyat va tajribalar yig'indisidir*". Inson kapitali nazariyasi asoschilarining bu qisqacha ta'rifi vaqt o'tishi bilan insoniyat

turmushida yuzaga kelgan o'zgarishlar tufayli kengayib va mukammallashib bormoqda. Bugungi kunda inson kapitali haqidagi nazariya iqtisod fanining mustaqil tarmog'iga ("Inson kapitali iqtisodiyoti" fani) aylandi.

Iqtisodiyot sohasida inson kapitali tushunchasining tadqiqodchi olimlar tomonidan tan olingan eng mukammal va keng tarqalgan ta'riflardan biri quyidagicha: *"Inson kapitali iqtisodiyot va jamiyat taraqqiyotining to'xtovsiz rivojlanuvchi va murakkab omili bo'lib, u o'zida inson omilining ishlab chiqarish omili sifatida samarali va oqilona amalda bo'lishini ta'minlovchi mehnat resurslarini, bilimlarni, aqliy va jismoniy mehnat unsurlarini, yashash shart-sharoitlarini, intellektual faoliyatni jamlaydi... Qisqachasi, inson kapitali – bu professionalizm, intellekt, bilimlar, sifatli va yuksak samarali mehnat va yuksak turmush darajasi hisoblanadi"*<sup>1</sup>.

Ushbu sohada ilk bor tadqiqot yuritgan olimlar inson kapitali deganda kishilarning ta'lim va kasb ko'nikmalariga sarflanadigan investitsiyalar jamlanmasi, yoki ularning mehnat qilishga bo'lgan qobiliyatlarini tushunilgan. Keyinchalik inson kapitali kategoriyasining mohiyati bir qancha kengaydi. XXI asrga kelib, inson kapitali tushunchasiga berilgan ta'riflar yanada kengayib barmoqda.

*Keng ma'nodagi inson kapitali* – bu iqtisodiy rivojlanishning intensiv ishlab chiqarish omili, jamiyat va oilani rivojlantirish, mehnat resurslarining bilimli qismi, intellektual va boshqaruv mehnati, yashash va ish joyi muhitidir. Ular inson kapitalini rivojlantirishning ishlab chiqarish omili sifatida samarali va oqilona amal etishini ta'minlashi kerak"<sup>2</sup>.

Teodor Shults inson kapitalini "mulkga o'xshash narsa" deb hisoblaydi va insonning ishlab chiqarish salohiyati (mahsuldorligi) boylikning boshqa barcha shakllaridan sezilarli darajada yuqori ekanligini ta'qidadi. Shultsning fikricha, "inson kapitali insonning hayoti davomida orttirilgan qimmatli fazilatlardan shakllanadi, uni tegishli investitsiyalar orqali mustahkamlash mumkin. Shaxsning o'ziga investitsiyalar hisobiga inson kapitalining ko'payishi daromadlar tarkibining o'zgarishiga ta'sir qiladi. Bu inson kapitali faqat tug'ma qobiliyatlar bilan cheklanib qolmasdan, balki hayot davomida to'plangan ko'nikma va bilimlarni ham o'z ichiga olishini tushintiradi"<sup>3</sup>.

Inson kapitali nazariyasi asoschilaridan biri G. Bekker<sup>4</sup> birinchi bo'lib inson kapitali konsepsiyasini mikro darajada (korxonalar darajasida) qo'llagan. U korxonadagi inson kapitalini insonning bilim va mahorati, ko'nikma va tajribalarining

<sup>1</sup> Курганский С.А. Введение и теория человеческого капитала. - СПб.: ГУЭФ, 1999. – 60 с.

<sup>2</sup> Abdurahmanov Q. Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot. Darslik. T.: O'zbekiston Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti davlat korxonasi. 2019 y., 200 bet

<sup>3</sup> Schultz T. W. Investment in Human Capital [Text] / T.W. Schultz // The American Economic Review. 1961. Vol. 51. Pr. 1–17.

<sup>4</sup> Geri Stenli Bekker (Gary Stanley Becker, 1930 yil 2 dekabrda tug'ilgan) - amerikalik iqtisodchi, "mikroiqtisodiy tahlil sohasini insonning qator xususiyatlariga qo'llash uchun" 1992 yilgi Nobel mukofoti laureati. Asosiy asarlari: "Kamsitishning iqtisodiy nazariyasi" ("The Economics of Discrimination", 1957), "Inson kapitali" ("Human Capital", 1964), "Iqtisodiy nazariya" ("Economic Theory, 1971").

yig'indisi deb ta'riflagan. Shu munosabat bilan u xodimlarni maxsus tayyorgarlikdan o'tkazish va malakasini oshirish, ularda maxsus bilim, ko'nikma va tajribalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratgan.

Iqtisodchi olim G.Bekkerning fikricha, xodimlarning maxsus bilim, mahorat va tajribasi korxonaning raqobatdosh ustunligini shakllantiradi. Mahsulotlarning ushbu bozorlarda ma'lum va mashhur bo'lishi esa pirovard natijada korxonaning obro'si, imidji, nou-xau va brendida o'z aksini topadi.

Amerikalik iqtisodchi olim Y.Ben-Porat tasnifiga muvofiq, inson kapitalini quyidagi 2 ta tarkibiy qismlarga ajratish mumkin<sup>5</sup>:

1) inson kapitalini shakllantirishda ishtirok etuvchi shaxslarning intellekti, bilimi, ko'nikmasi, malakasi, qobiliyatlari va tajribalari;

2) bozorda taklif etilayotgan va boshqa tovarlarni ishlab chiqarish hamda ularga xizmat ko'rsatish uchun qo'yilgan kapitalning bir qismi.

Inson kapitali nazariyasini sohasida tadqiqot olib brogan iqtisodchilar olimlarning ba'zilari inson kapitali tarkibini tahlil qilishda uning egasining ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonida ishtirok etish imkoniyatini hisobga olgan. Xususan, iqtisodchi olim O. Nordhaug quyidagilarni ta'kidlaydi: "Tahlil etish nuqtai nazaridan, bir tarafdin, xodimlarning sog'lig'i va malakasini, ikkinchi tomondan, ularning motivatsiyasi va firmaga sodiqligini farqlash foydalidir. Dastlabki ikki unsur alohida bir xodimning topshiriqni bajarish, ya'ni mehnat qilish bo'yicha asosiy qobiliyatini tashkil etadi. Inson kapitalining keyingi ikki unsuri esa mazkur xodim o'z malakasiga ko'ra, ishda qanday faoliyat olib borishini aks ettiradi. Qobiliyat va xohish birgalikda mazkur xodimning mehnatga qobiliyatini shakllantiradi"<sup>6</sup>.

Ahloqiy jihatdan yetuk jamiyatlarda manfiy inson kapitaliga ega bo'lgan odamlar boshi berk ko'chadan chiqish uchun so'nggi imkoniyatga ega bo'lib, ularning ijobiy o'zgarishlar yo'lidagi harakatlari jamiyat va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Masalan, O'zbekistonda har yili Konstitutsiya yoki Mustaqillik bayrami arafasida xatoga yo'l qo'ygan shaxslarga nisbatan amnistiya e'lon qilinib, muqaddam sudlanganlarning hayotda o'z o'rnini topishiga ko'maklashilmoqda. Bunday ijtimoiy g'amxo'rlik samarasida manfiy inson kapitaliga ega bo'lgan fuqarolar ozodlikdan mahrum etish joylaridan muddatidan oldin ozod etilib, keyinchalik mahalliy davlat hokimiyati va ichki ishlar organlari tomonidan ularning ish topishi va uy-joy bilan ta'minlanishi, yangi kasb-hunar egallashiga ko'maklashilmoqda. Mana ushday g'amxo'rlik samarasida mamlakatimizda to'g'ri yo'lga tushib, ijobiy inson kapitali toifasiga qaytganlar ko'p. Bu albatta, davlatning oqlana ijtimoiy siyosatining natijasidir.

O'zbekistonli iqtisodchi olim Q.X. Abdurahmonovning fikricha, "Inson kapitali

<sup>5</sup> Ben-Porath. The Production of Human Capital and the Life Cycle of Earnings. – N.Y.: -L, 1970.- P.49.

<sup>6</sup> Nordhoug O. Human Capital in Organizations: Competence, Training and Learning. – Oslo.: Scandinavian University Press, 1993. - P.52.

kishilar o‘z hayoti mobaynida yig‘ib boradigan, ularga jamiyatning foydali a‘zolari sifatida salohiyatini amalga oshirishiga imkon beruvchi bilimlari, ko‘nikmalari va salomatligidir.”<sup>7</sup>. Binobarin, inson kapitali iqtisodiy o‘shish va mehnat unumdorligining asosiy omili hisoblanadi. Inson kapitali tushunchasi iqtisodiy kategoriya sifatida jahon axborot hamjamiyati va “bilimlar iqtisodiyoti” rivojlanishi bilan birga doimiy ravishda kengayib bormoqda. Hozirgi davrda inson kapitali iqtisodiyot, jamiyat va oila taraqqiyotining intensiv ishlab chiqarish omili, jumladan, intellektual va boshqaruv mehnati, turmush va mehnat muhiti hisoblanadi. Bu ishlab chiqarish omili sifatida inson kapitalini rivojlantirishning samarali va oqilona ishlashini ta‘minlaydi<sup>8</sup>.

Iqtisodchi olimlar tomonidan inson kapitaliga berilgan ta‘riflardan kelib chiqib, inson kapitaliga quydagi ta‘rifni berishimiz mumkin: inson kapitali iqtisodiy o‘shishni ta‘minlaydigan eng murakkab va dinamik omil bo‘lib, u inson omilidan samarali foydalanishni ta‘minlaydigan salomatlik, aql, bilim, mahorat, ko‘nikma, motivatsiya, tajriba, intellektual va innovatsion qobiliyatdir.

Inson kapitali nazariyasiga asoslanib, inson kapitalini to‘plash turli yo‘llar bilan amalga oshirilishi mumkin. Ulardan eng muhimi - ta‘lim va kadrlar tayyorlash. Odatda bu ro‘yxatga oilaviy ta‘lim kiradi.

Inson kapitalining shakllanishi va rivojlanishi unga kiritilgan investitsiyalar bilan bevosita bog‘liq. Inson kapitaliga investitsiyalar fizik kapitalga sarflanadigan investitsiyalardan farqliroq, amalda qisman samarasiz bo‘lishi mumkin. Shuning uchun bu xarajatlarning barchasini investitsiyaga kiritish mumkin emas. Bunday masalalar inson kapitaliga investitsiyalarning qiymati va daromadini hisoblashni qiyinlashtiradi.

Inson kapitali bozori har qanday investitsiya bozori kabi kamchiliklardan xoli emas:

- ishchi kuchining nisbatan erkin harakatlanishi ish beruvchilarning ishchi kuchini rivojlantirishga sarmoya kiritishga moyilligini pasaytiradi;
- Chekka hududlarda internetga ulanishning pastligi sababli ta‘lim narxi haqida ma‘lumotning yetarli emasligi, usbu hududlarda inson kapitaliga noto‘g‘ri sarmoya kiritilishiga olib kelishi mumkin;
- daromadlarining pastligi bois ba‘zi odamlar o‘zlariga sarmoya kiritish uchun yetarli pulga ega emaslar.

Keltirilgan kamchiliklarni inson kapitali investitsiyalari bozorining o‘zi optimal darajada tartibga solish imkoniyatiga ega emas, bu esa, usbu bozorning davlat himoyasida bo‘lishini taqozo etadi.

Jahon banking tadqiqotlari ushbu yondashuvning alohida ahamiyatini tasdiqlaydi. Bunday xulosaga Jahon banki ekspertlari dunyoning 192 davlatida olib

<sup>7</sup> Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. –T.: Mehnat, 2019. - B.182.

<sup>8</sup> Корчагин Ю.А. Инновационная стратегия. – Ростов на Дону: Феникс, 2006. с. 17.

borgan tadqiqotlari natijasida keldi<sup>9</sup>:

- jami iqtisodiy o'sishning 64,0 foizidan ortig'i inson kapitali bilan bog'liq;
- mamlakat tabiiy resurslari umumiy iqtisodiy o'sishning atigi 20,0 foizini tashkil etadi;
- iqtisodiyoti o'tish davridagi mamlakatlarda ishlab chiqarish salohiyati umumiy iqtisodiy o'sishning atigi 16,0 foizini ta'minlaydi.

Bu faktlar inson kapitalining zamonaviy jamiyatdagi o'rni va zarurligini yorqin ifodalaydi.

O'zbekistonni 2030-yilga qadar global innovatsion indeks reytingida dunyoning yetakchi davlatlari qatoriga kiritishdek ulkan maqsadlarga erishishda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan strategik reja e'lon qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning ta'kidlaganidek, "bizning maqsadimiz ilm-fan sohasini zamonaviy iqtisodiyot talablariga moslashtirishdan iborat bo'lib, o'z navbatida, ilm-fandagi tegishli huquqiy baza bilan tartibga solinadigan tub tarkibiy, tashkiliy, moliyaviy hamda kadrlar va infratuzilmaga oid islohot-o'zgarishlarni amalga oshirishni talab etadi"<sup>10</sup>.

Darhaqiqat, inson kapitalini rivojlantirmasdan turib, innovatsion taraqqiyotga erishish mumkin emas. Inson kapitaliga sarmoya kiritishni e'tiborsiz qoldirish mamlakat raqobatbardoshligining keskin pasayishiga olib kelishi mumkin. Mamlakat iqtisodiy jihatdan taraqqiy etishi uchun iste'dodli odamlarni tarbiyalash talab etiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoev SH.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021, 240-bet
2. Abdurahmanov Q. Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot. Darslik. T.: O'zbekiston Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti davlat korxonasi. 2019 y., 200 bet
3. Корчагин Ю.А. Инновационная стратегия. – Ростов на Дону: Феникс, 2006. с. 17.
4. Курганский С.А. Введение и теория человеческого капитала. - СПб.: ГУЭФ, 1999. – 60 с.
5. Ben-Porath. The Production of Human Capital and the Life Cycle of Earnings. – N.Y.; -L, 1970.- P.49.
6. Nordhoug O. Human Capital in Organizations: Competence, Training and Learning. – Oslo.: Scandinavian University Press, 1993. - P.52.
7. Schultz T. W. Investment in Human Capital [Text] / T.W. Schultz // The American Economic Review. 1961. Vol. 51. Pr. 1–17.
8. <https://www.vsemirnyjbank.org/ru/publication/human-capital/brief/the-human-capital-project-frequently-asked-questions>

<sup>9</sup> <https://www.vsemirnyjbank.org/ru/publication/human-capital/brief/the-human-capital-project-frequently-asked-questions>

<sup>10</sup> Mirziyoev SH.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021, 240-bet